

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agrotexnologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 дон чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibril modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarining rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallashgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....552

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV

NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





POMIDORNI KOKTEYL TIPIDAGI DURAGAY NAMUNALARINING HOSILDORLIGI

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti

E-mail: kamolovanargizaxon3@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-3455-3490

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xududida isitilmaydigan issiqxonalar sharoitida yetishtiriladigan pomidorning kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligiga tavsif berilgan. Issiqxona sharoitida mahsulot yetishtirishga sarflanadigan moddiy mablag' xarajatlari ochiq maydonga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bunday sabzavot o'simliklaridan biri pomidor hisoblanadi. Shu sababli issiqxonada yetishtiriladigan pomidorlar yuqori hosil berishi uchun aksariyat hollarda ularning indeterminant nav va duragaylaridan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: pomidor, kokteyl tipi, duragay, shingillar, isitilmaydigan issiqxona, hosildorlik, maydon birligi.

Аннотация. В данной статье дана характеристика урожайности гибридных образцов томата коктейльного типа, выращиваемых в условиях неотапливаемых теплиц на территории Узбекистана. Материальные затраты на производство овощной продукции в тепличных условиях значительно выше, чем в открытом грунте. Одной из таких овощных культур является томат. Поэтому для получения высоких урожаев в тепличных условиях в большинстве случаев используют индетерминантные сорта и гибриды томата.

Ключевые слова: томат, коктейльный тип, гибрид, кисти, неотапливаемая теплица, урожайность, единица площади.

Abstract. This article describes the productivity of cocktail-type tomato hybrid samples grown in unheated greenhouse conditions in Uzbekistan. The material costs of producing vegetables under greenhouse conditions are considerably higher than those in open-field cultivation. Tomato is one of the major vegetable crops grown under greenhouse conditions. Therefore, in order to obtain high yields, indeterminate tomato varieties and hybrids are predominantly used in greenhouse production.

Keywords: tomato, cocktail type, hybrid, fruit clusters, unheated greenhouse, yield, unit area.

KIRISH

Dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning yildan yilga ortib borishi, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish xajmi yanada kengaytirish va yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy ta'minlashni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati va eksport salohiyatini oshirish borasida jadal islohotlar olib borilmoqdaki, bu xozirdanoq agrar soxada o'z natijalarini bera boshladi.

Respublikamizda ayni vaqtda mavjud issiqxonalarda asosan pomidor, bodring va boshqa sabzavot ekinlari yetishtirilmoqda.

Pomidor sabzavot ekinlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egalab kelmoqda. Pomidorning har bir navi yoki duragayining mevalari o'ziga xos shakli, hajmi, zichligi, rangi, yorqinligi, kimyoviy tarkibi va xushbo'y ta'miga ega. Bu xususiyatlarning aksariyati duragay va nav xususiyatlariga, ularning yetishtirish texnologiyasiga qarab farq qilishi mumkin. O'zbekistonning Andijon viloyatida pomidorni istilmaydigan issiqxonalar sharoitida yetishtirish uchun, bugungi kunda eng ko'p talab qilinayotgan kokteyl pomidorlarni viloyat sharoitida keng





yetishtirishni yo'lga qo'yish uchun maqbul duragaylarni tanlash, ularni yetishtirish texnologiyasining muhim elementlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida "...oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat dasturini ishlab chiqish va joriy etish" muhim vazifalardan biri sifatida ta'kidlab o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Biroq, respublika issiqxona sharoitida pomidorning "kokteyl" duragaylarini tanlash hamda yetishtirishning texnologik elementlarini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi. Shu sababli, issiqxonalarda qishki-bahorgi aylanishda pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalari yetishtirishning texnologik elementlarini ishlab chiqishni tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Pomidorni tezpushar, yuqori va sifatli hosil beruvchi, turli shakl va rangli kokteyl va boshqa tipdagi duragaylarini yaratish, istilmaydigan issiqxonalar sharoitida pomidor yetishtirishning muhim elementlarini ishlab chiqish yuzasidan xorijiy mamlakatlarda J. Casals, F. He, M.S. Kurubas, A.Kabas, B.Zh.Yuan, V. Paradkar, MDH davlatlarida R.K. Reches, S.F. Gavrish, V.G. Korol, Ye.V. Titova, K.A. Chusovitina, P.M. Axmedova va boshqalar, O'zbekiston Respublikasida esa Z.T.Abdiyev, S.O.Egamberdiyev, A.S. Saburova, D.Ye. Madreyimova, va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, kokteyl tipidagi pomidorlar nisbatan yangi duragaylar guruhi bo'lganligi sababli, ularni Andijon viloyati sharoitida istilmaydigan issiqxonalarda yetishtirish, ushbu hudud uchun duragay tanlash va yetishtirish texnologiyasining muhim elementlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-izlanishlar xajmini yetarli deb bo'lmaydi. Shu sababli, ushbu dissertatsiya tadqiqoti pomidorning istiqbolli kokteyl tipidagi duragaylarini va yetishtirish texnologiyasining muhim elementlarini tanlash yuqori ahamiyatga ega.

Pomidorning kokteyl tipidagi duragaylari respublikamizda yaqin yillardan buyon yetishtirila boshlandi va ular respublikamiz sabzavotchiligi uchun nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Har qanday tipdagi pomidorlar singari kokteyl tipidagi pomidorlar uchun ham barglarining rivojlanishi muhim fiziologik ko'rsatkich hisoblanadi. Shunga ko'ra barglar asosiy fotosintez a'zolari bo'lib, ularda fotosintez natijasida organik moddalar hosil bo'ladi. Ushbu moddalar o'simlikning mahsuldorligini ta'minlaydi. Bizning tajribalarimizda 7 ta chinbargli, plastik kassetalarda yetishtirilgan yopiq ildizli ko'chatlardan foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajribamizda olib borilgan kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchi shingildagi mevalarning pishish muddati bo'yicha ham o'rganilgan kokteyl tipidagi pomidor duragaylari o'zaro farqlandi. Bunda birinchi shingildagi





mevalarning eng erta rang ola boshlash muddati bilan Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylari alohida ajralib turdi. Ushbu duragaylarda birinchi shingildadagi dastlabki mevalarning rang ola boshlashi gullash boshlangan kundan boshlab 29 – 31-kunlari qayd etildi. Birinchi shingildada mevalarning eng kech rang ola boshlashi Kampari F1 va Moda F1 duragaylarida kuzatildi. Ushbu pomidor duragaylarida birinchi shingildadadagi dastlabki mevalar gullash boshlangandan keyingi 39 – 41-kunlari rang ola boshladi. Qolgan pomidor duragaylari birinchi shingildadagi mevalarning rang ola boshlash muddati bo'yicha yuqorida tavsiflangan duragaylar o'rtasida oraliq ifodaga ega bo'ldi va ularda dastlabki mevalar gullash boshlangan keyingi 35 – 37-kunlari rang ola boshladi.

Birinchi shingilidagi mevalarning to'liq pishish muddati bo'yicha ham o'rganilgan kokteyl tipidagi pomidor duragaylari o'zaro farqlandi. Bunda birinchi shingilidagi mevalarning eng erta pishishi bilan Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylari alohida ajralib turdi. Ushbu duragaylarda birinchi shingilidagi mevalarning to'liq pishishi gullash boshlangan kundan boshlab 40 – 41-kunlari qayd etildi.

Birinchi shingilidagi mevalarning eng kech pishishi bilan Kampari F1 va Moda F1 duragaylari ajralib turdi. Ushbu pomidor duragaylarida birinchi shingilidagi mevalarning to'liq pishishi gullash boshlangandan keyingi 50 – 54-kunlarga to'g'ri keldi. Qolgan pomidor duragaylari birinchi shingilidagi mevalarning to'liq pishish muddati bo'yicha yuqorida tavsiflangan duragaylar o'rtasida oraliq ifodaga ega bo'ldi va ularda birinchi meva shingilining to'liq pishishi gullash boshlangan keyingi 45 – 48-kunlari qayd etildi.

Ko'chatlar mart oyining birinchi sanasida istilmaydigan plyonkali issiqxonalarga ekildi va navbatdagi barg chiqishidan boshlab o'rganildi. Kuzatuvlarimiz navbatdagi 5 ta barggacha davom ettirildi, ya'ni 7 bargdan 12-barggacha.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sabzavot ekinlarini yetishtirishda ularning hosildorligi muhim xo'jalik ko'rsatkich hisoblanadi. Ayniqsa ushbu sabzavotlar issiqxona sharoitida yetishtirilganda hosildorlik yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Isitilmaydigan issiqxona sharoitida mahsulot yetishtirishga sarflanadigan moddiy mablag' xarajatlari ochiq maydonga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bunday sabzavot o'simliklaridan biri pomidor hisoblanadi. Shu sababli issiqxonada yetishtiriladigan pomidorlar yuqori hosil berishi uchun aksariyat hollarda ularning indeterminant duragay va navlaridan foydalaniladi. Negaki, indeterminant nav va duragaylar determinantlardan yuqori hosil berishi bilan ajralib turadi. Bunday indeterminant pomidor nav va duragaylari o'zaro ham hosildorligi bo'yicha farq qiladi. Bizning tadqiqotlarimizda eng yuqori hosil beradigan kokteyl pomidor duragayini ajratish uchun tajribada ularning mahsuldorlik elementlari va hosildorligi alohida o'rganildi.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, bir tupda shakllangan to'laqonli shingillar





sonining eng ko'pligi bilan kokteyl tipidagi pomidorning Moda F1 duragayi alohida ajralib turdi. Ushbu duragayda butun o'suv davri mobaynida 11 donagacha to'liq rivojlangan shingillar shakllandi. Eng kam shingillar soni Annaisa F1 va Annasan F1 duragaylarida kuzatildi. Ushbu pomidor duragaylarida o'suv davrida to'liq shakllangan shingillar soni 8 donadan oshmadi. Qolgan duragaylarda o'suv davrida to'liq shakllangan shingillar soni ushbu tavsiflangan duragaylar o'rtasida bo'ldi va ularda 9-10 ta atrofida shingillar to'liq shakllandi.

Pomidorning o'rganilgan kokteyl tipidagi duragaylari bir shingildagi mevalarning o'rtacha soni bo'yicha ham o'zaro farqlandi. Bunda bir shingildagi mevalarning eng ko'p soni bilan Briozo F1, Moda F1 va Annaisa F1 duragaylari alohida ajralib turdi. Ushbu pomidor duragaylarining bir shingilidagi mevalarning o'rtacha soni 11-12 dona atrofida bo'ldi. Shingilidagi mevalarning eng kam soni Annaoranj F1 va Annasan F1 duragaylarida kuzatildi. Qolgan duragaylarda bir shingilidagi mevalarning o'rtacha soni ushbu tavsiflangan duragaylar o'rtasida oraliq o'rin egalladi va ularda o'rtacha 9-10 ta atrofida mevalar shakllandi. Pomidor duragaylari bir mevaning o'rtacha og'irligi bo'yicha ham o'zaro farqlandi. Bunda eng yirik (≥ 50 g) mevalar Umid F1 duragayida shakllandi. Ushbu duragayda shakllangan mevalarning o'rtacha og'irligi 50,3 g atrofida bo'ldi.

1-jadval

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligi (2023-2025 yillar)

Duragay namunalari	Shingillar soni, dona	Shingillar-dagi meva soni, dona	Bir mevaning o'rtacha og'irligi, gr	Tupining o'rtacha hosili, kg	Hosildor-kg/m ²
Umid F1 (st)	10	11	34,3	3,77	12,6
Briozo F1	9	11	42,3	4,19	17,4
Kampari F1	10	10	39,4	3,94	16,4
Annamey F1	9	9	41,4	3,35	13,9
Tatami F1	10	10	39,1	3,91	16,2
Moda F1	11	12	33,5	4,42	18,4
Annaisa F1	8	11	41,7	3,67	15,2
Metyu F1	10	9	40,9	3,68	15,3
Annaoranj F1	10	8	33,7	2,70	11,2
Annasan F1	8	8	39,1	2,50	10,4
Forte Roze F1	10	10	50,3	5,03	20,9
EKF ₀₅	0,33	0,44	1,75	0,24	10,1
Sx	0,76	1,02	4,04	0,55	23,3

Qolgan duragaylarning mevalarini o'rtacha mos holda 34,1-42,3 g og'irlikdagi mevalar tugildi. Bir tupdagi shakllangan shingillarning o'rtacha soni, ularda shakllangan mevalarning o'rtacha soni va bir mevaning o'rtacha og'irligi o'rganilgan kokteyl tipidagi pomidor duragaylarining bir tupidan olingan hosil miqdorida o'zaro farqlanishlar bo'lishiga olib keldi. Bunda bir tupdan olingan eng yuqori hosil bilan Umid F1 duragayi alohida ajralib turdi. Ushbu duragayning bir tupidan olingan o'rtacha hosil 5,03 kg atrofida bo'ldi. Bir tupdan olingan hosil Annaoranj F1 va Annasan F1 eng kam miqdorda bo'ldi. Ushbu duragaylarning bir





tupidan olingan hosil 2,50-2,70 kg dan oshmadi. Qolgan duragaylarning bir tupidan olingan hosil yuqorida tavsiflangan duragaylar o'rtasida oraliq qiymatga ega bo'ldi va ularda duragaylar bo'yicha mos holda 3,35-4,42 kg atrofida hosil shakllandi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bir tupdan olingan hosilga to'g'ri proporsional bog'liqlikda bir geklardan olingan hosildorlik ham duragaylar bo'yicha o'zaro farqlandi. Bunda qoidaga muvofiq, bir tupdan eng yuqori hosil olingan standart Umid F1 duragayiga nisbatan Forte Roze F1 duragayi maydon birligidagi hosildorligining eng yuqoriligi bo'yicha ham alohida ajralib turdi. Ushbu duragaydan olingan bir geklardagi hosildorlik 20,9 t gacha yetdi.

Maydon birligidagi eng kam hosildorlik Annaoranj F1 va Annasan F1 duragaylarida hisob qilindi. Qolgan duragaylarning bir geklardan olingan hosildorligi yuqorida tavsiflangan duragaylar o'rtasida oraliq qiymatga ega bo'ldi va ularda duragaylar bo'yicha mos holda 139,7-174,6 tonna atrofida hosildorlik olindi.

XULOSA

Pomidorning kokteyl tipi Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylarida birinchi shingilidagi dastlabki mevalarning rang ola boshlashi gullash boshlangan kundan boshlab 29–31-kunlari, Kampari F1 va Moda F1 duragaylarida esa eng kech 39-41 kunlari rang ola boshladi. Qolgan pomidor duragaylarida birinchi shingilidagi mevalar 35–37-kunlari rang ola boshladi. O'suv davrining eng qisqaligi bilan Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylari alohida ajralib turdi. Ularning urug' unib chiqqandan birinchi shingilidagi mevalari pishgungacha bo'lgan davr davomiyligi 67-68 kunni tashkil etdi. O'suv davrining eng uzunligi (110 kun) bilan Moda F1 duragayi ajralib turdi. Qolgan duragaylarning o'suv davri davomiyligi 71-99 kun oralig'ida bo'ldi. Pomidor duragaylari orasida asosiy poyasining bo'yini eng uzunligi – 247,9-269,4 sm bilan Moda F1 va Metyu F1 duragaylari ajralib turdi. Eng qisqa – 149,3-159,5 sm dan oshmagan asosiy poya Tatami F1 va Annaisa F1 duragaylarida kuzatildi. Qolgan duragaylarning asosiy poyasini bo'yi 179,7-224,7 sm oralig'ida bo'ldi. Hosil berish davrining eng qisqaligi Annamey F1 va Metyu F1 duragaylarida (39-41 kun), eng yuqori davomiyligi Moda F1, Forte Roze F1 va Tatami F1 duragaylarida (68- 73 kun) qayd etildi. Qolgan duragaylarining hosil berish davri davomiyligi 51 kundan 63 kungacha davom etdi. O'suv davri, shingil berish davri va hosil berish davri davomiyligi umumlashtirgan holda, o'rganilgan kokteyl tipidagi pomidor duragaylari shartli ravishda quyidagi tezpisharlik guruhlariga ajratildi:

o'suv davri 60-70 kun bo'lgan erta pishar – Annamey F1, Annaisa F1 va Annasan F1;

o'suv davri 71-90 kun bo'lgan o'rta pishar – Tatami F1 va Metyu F1;

o'suv davri 91-110 kun bo'lgan kech pishar – Briozo F1, Kampari F1, Moda F1 va Forte Roze F1.

Quruq moddalarning eng yuqori – 8,0-8,1 % ko'rsatkichi Annamey F1 va





Brioza F1, eng kam – 4,9-5,4 % miqdori Forte Roze F1, Moda F1 va Annasan F1 duragaylarida aniqlandi. Qolgan pomidor duragaylari mevasining tarkibidagi umumiy quruq moddalar miqdori 6,1-7,7 % oralig'ida bo'ldi. Pomidor duragaylarida likopinning eng yuqori – 5,0 mg/100 g ko'rsatkichni tashkil etib Brioza F1 duragayi ajralib turdi va standart Umid F1 duragayiga nisbatan 0,4 % ga yuqori bo'lgan. Likopinning eng kam – 2,7-3,9 mg/100 g miqdori pushti mevali Forte Roze F1 va Tatami F1 duragaylarida aniqlandi. Qolgan qizil rangli duragaylar mevasining tarkibidagi likopin miqdori 4,5-4,9 % mg/100 g oralig'ida bo'ldi. Organik kislotalarning umumiy miqdorining eng yuqori standart Umid F1 duragayiga nisbatan 1,8-1,9 % y'ani – 5,9-6,0% ko'rsatkichi Annamey F1 va Kampari F1, eng kam – 3,8-3,9 % miqdori Forte Roze F1 va Moda F1 duragaylarida aniqlandi. Qolgan duragaylar mevasining tarkibidagi organik kislotalar miqdori 4,0-5,7 % oralig'ida bo'ldi. Mevalarning tashqi ko'rinishi, ta'm sifatlari va hidi hamda etining konsistensiyasi umumlashtirilgan holda eng yuqori degustatsiya bahosi standart Umid F1 duragayiga nisbatan yuqori natija ko'rsatgan – 9,7-9,8 ball Annaisa F1, Annaoranj F1 va Forte Roze F1, eng kichik – 8,4 ball degustatsiya bahosi Annasan F1 duragayi mevalariga qo'yildi.

Qolgan kokteyl tipidagi pomidor duragaylari mevasining degustatsiya bahosi 9,0-9,5 ball atrofida baholandi. Standart Umid F1 duragayiga nisbatan bir shingildagi mevalarning eng ko'p soni – 11-12 dona Brioza F1, Moda F1 va Annaisa F1, eng kam – 8 dona Annaoranj F1 va Annasan F1 duragaylarida kuzatildi. Qolgan duragaylarda bir shingilida o'rtacha 9-10 dona atrofida mevalar shakllandi. Pomidorning o'rganilgan kokteyl tipidagi duragaylari bir mevaning o'rtacha og'irligi bo'yicha ham o'zaro farqlandi. Bunda standart Umid F1 duragayiga nisbatan eng yirik (≥ 50 g) mevalar Forte Roze F1, eng mayda (≤ 34 g) mevalar Moda F1 va Annaoranj F1 duragaylarida shakllandi. Qolgan duragaylarda o'rtacha 34,1-42,3 g og'irlikdagi mevalar tugildi. Pomidorning o'rganilgan kokteyl tipidagi duragaylari hosildorligi bo'yicha ham o'zaro farqlandi. Standart Umid F1 duragayiga nisbatan eng yuqori – 209,6 t/ga hosildorlik Forte Roze F1, eng kam – 90,9-112,3 t/ga atrofida hosildorlik Annaoranj F1 va Annasan F1 duragaylarida hisob qilindi. Qolgan duragaylarning bir gektardan olingan hosildorligi navlar bo'yicha mos holda 139,7-174,6 tonna atrofida bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 noyabrdagi "Issiqxona komplekslarini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4020-sonli qarori.

3. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuiyev, O.Q.Qodirxo'jayev "Sabzavotchilik". Toshkent 2009.





4. Yusupov.B. "Issiqxona pomidori navlarini tanlash va agrotexnika tadbirlari." O'zbekiston Agrar Tadqiqot Markazi. 2023
5. www.fao.org-BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti rasmiy sayti.
6. Axmedov P.M. Культура томата в промышленных теплицах Дагестана.// Горное сельское хозяйство. – 2018. № 3. –С. 90-96
7. Egamberdiyev S.Y., Yunusov S.A. Cherri pomidor yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlari. // "Ilm-fan va innovatsion rivojlanish" jurnali. – Toshkent, 2021.– №3/2021. – B. 84-97.
8. Egamberdiyev S.Y, Yunusov S.A. Selection of Samples of High-Yielding of Cherry Tomatoes //International Journal of Biological Engineering and Agriculture. Vol. 2, No 10 oct – 2023. – P. 43-53. (Impact Factor: 5.7).
9. Egamberdiyev S.Y., Yunusov S.A. Selection of high yield cherry tomatoes varieties //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. 2022 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1140 011028. (Impact Factor: 8.75).
10. Egamberdiyev S.Y, Yunusov S.A. Peculiarities of growing cherry tomatoes // Материалы VI Международной научно-практической конференции «Овощеводство и бахчеводство: исторические аспекты, современное состояние, проблемы и перспективы развития» (в рамках V научного форума «Неделя науки в Крутах-2021»), (9-10 марта 2021 г.), – Украина, 2021. – Том1. – С. 28-42.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**